

INGLIZ VA O‘ZBEK ERTAKLARIDAGI “MEHNATSEVARLIK/DANGASALIK” AKSIOLOGIK
BINAR OPPOZITSIYASI: LINGVOMADANIY TAHLILYusupova Ominaxon Muxammadzoi qizi
Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.22137051>

Annotatsiya. Mazkur maqolada ingliz va o‘zbek xalq ertaklari materiali asosida “mehnatsevarlik/dangasalik” aksiologik binar oppozitsiyasining lingvomadaniy xususiyatlari tahlil qilinadi. Tadqiqot doirasida mazkur oppozitsiyani ifodalovchi leksik-frazeologik birliklar, obrazlar tizimi va ularning baholovchi (aksiologik) semantikasi struktur-semantik hamda qiyosiy-tipologik metodlar yordamida o‘rganiladi. Tahlil natijalari shuni ko‘rsatadiki, ikki xalq ertaklarida ham mehnatsevarlik ijobiy, dangasalik esa salbiy qadriyat sifatida talqin etiladi, biroq bu oppozitsiyaning tilda va obrazlarda ifodalanish vositalari milliy-madaniy o‘ziga xosliklarga ega. Maqola natijalari ingliz va o‘zbek lingvomadaniyatlaridagi qadriyatlar tizimini qiyosiy o‘rganishga hissa qo‘shadi.

Kalit so‘zlar: aksiologik binar oppozitsiya, mehnatsevarlik, dangasalik, lingvomadaniyat, xalq ertaklari, qiyosiy-tipologik tahlil.

KIRISH. Til va madaniyat o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlik zamonaviy tilshunoslikning eng dolzarb yo‘nalishlaridan biri bo‘lgan lingvokulturologiyaning shakllanishiga asos bo‘ldi. Xalq ertaklari esa millatning dunyoqarashi, axloqiy-estetik qadriyatlari va turmush tarzini aks ettiruvchi, ularni avloddan-avlodga yetkazib beruvchi eng qadimiy hamda noyob lingvomadaniy manbalardan biri hisoblanadi. Ertaklarda aks etgan aksiologik (qadriyatga oid) binar oppozitsiyalar, xususan, “mehnatsevarlik/dangasalik” xalqning mehnatga, halol turmush tarziga bo‘lgan munosabatini o‘zida mujassam etadi. Mazkur tushunchalar inson faoliyatining eng qadimiy hamda universal baholovchi kategoriyalaridan biri sifatida deyarli barcha xalqlar og‘zaki ijodida o‘z aksini topgan. Biroq bu umuminsoniy qadriyatning til orqali ifodalanish vositalari, obrazlar tizimi, frazeologik birliklar va baholovchi leksika har bir xalqning milliy-madaniy o‘ziga xosligini namoyon etadi. Shu bois ingliz va o‘zbek xalq ertaklari misolida mazkur oppozitsiyani qiyosiy-tipologik jihatdan o‘rganish nafaqat lingvistik, balki lingvokulturologik ahamiyatga ham egadir. Tadqiqotning dolzarbligi shundaki, mehnatsevarlik va dangasalik tushunchalari har ikki xalq mentalitetida markaziy o‘rin egallasa-da, ularning ifodalanish shakllari va obrazlar tizimi milliy-madaniy o‘ziga xosliklarga ega bo‘lib, bu holat ularni qiyosiy tipologik jihatdan o‘rganish zaruriyatini keltirib chiqaradi.

Binar oppozitsiya tushunchasi struktur tilshunoslik, semiotika va madaniy antropologiya asosiy tamoyillaridan biridir. Uning nazariy asoslari Ferdinand de Sossyurga (1916) borib taqaladi. U tilni belgilar tizimi sifatida ko‘rib, unda ma’no birliklarning o‘ziga xos xususiyatlaridan emas, balki ular o‘rtasidagi farq hamda oppozitsion munosabatlardan kelib chiqadi, deb hisoblagan. Bu g‘oya Praga lingvistik maktabi, xususan Yakobson (1952) va Trubetskoy (1939) tomonidan yanada rivojlantirilib, oppozitsiya nazariyasi til tuzilishini tahlil qilishning muhim vositasiga aylandi. Binar oppozitsiyalar g‘oyasi keyinchalik antropologiya va semiotikaga ham kengaytirildi. Klod Levi-Stros (1983) inson tafakkuri binar qarama-qarshiliklar asosida tashkil topishini, tushunchalar esa faqat o‘z ziddiga nisbatan ma’no kasb etishini ta’kidlagan. Greymas (1966) ham “Struktur semantika” asarida ma’no alohida so‘zlardan emas, leksik birliklar o‘rtasidagi struktur munosabatlardan yuzaga kelishini ko‘rsatgan.

O‘zbek tilshunosligi va folklorshunosligida ham binar oppozitsiya tushunchasi ko‘plab tilshunos olimlar tomonidan tadqiq etilgan. Nurmonov (2002) binar oppozitsiyalarni til tizimining asosiy struktur birliklari sifatida o‘rganib, tizimli-struktur tilshunoslik uchun muhim metodologik tamoyillarni belgilab bergan. Mazkur oppozitsiyalarning semantik tashkil topishi, xususan antonimiya va frazeologiya nuqtayi nazaridan, Rahmatullayev (1981), Mirzayev (1980) va boshqalar tomonidan yanada chuqurroq tadqiq etilgan. Kognitiv va lingvomadaniy nuqtayi nazardan esa Mahmudov (2012) madaniy qadriyatlar, antitezalar va fazoviy oppozitsiyalarning milliy til manzarasini shakllantirishdagi rolini o‘rgangan. Folklorshunoslikda Sarimsoqov (1981) va Jo‘rayev (2004) folklor matnlarining arxetipik, mifologik hamda binar tashkil topishini tahlil qilib, xalq og‘zaki ijodidagi struktur oppozitsiyalar ham umuminsoniy, ham milliy-madaniy ramziy tizimlardan kelib chiqishini ko‘rsatib bergan.

Yuqorida ko‘rib chiqilgan nazariy asoslarga tayangan holda, quyida ingliz va o‘zbek xalq ertaklaridan tanlab olingan matn parchalari asosida “mehnatsevarlik/dangasalik” aksiologik binar

oppozitsiyasini ifodalovchi leksik-frazeologik birliklar semantik va lingvomadaniy jihatdan tahlil qilinadi. Har bir misol alohida ko‘rib chiqilib, unda qo‘llangan til birliklarining semantik xususiyatlari, baholovchi ma‘nosi hamda ular orqali ifodalanagan milliy-madaniy qarashlar ochib beriladi.

“Shundan keyin Bahodir o‘zining qilmishlariga pushaymon bo‘lib, mehnatsevar xotini ahvoliga achinibdi. Tezroq saroydan qochib, o‘z uyiga borishga, qo‘rqoqlikni tashlab, chaqqonlikda xotini-yu qolgan hamma tanish-bilishlarini qoyil qoldirishga qaror qilibdi.” (Besh jonlini bejon qilgan Bahodir)

Ushbu parchada “mehnatsevarlik/dangasalik” oppozitsiyasi bevosita emas, balki qahramonning ichki o‘zgarishi orqali ifodalanadi. Matndagi *“mehnatsevar xotini”* birikmasi ayol qahramonga nisbatan ijobiy aksiologik baho beruvchi epiteta bo‘lib, u ertak syujetida ijobiy qadriyat tashuvchisi vazifasini bajaradi. Bahodirning xotiniga nisbatan “achinish” hissi aslida mehnatsevarlikning axloqiy ustunligini tan olishdir. *“Qo‘rqoqlikni tashlab, chaqqonlikda... qoyil qoldirish”* — bu yerda *qo‘rqoqlik* va *chaqqonlik* so‘zlari o‘zaro oppozitsiyada qo‘llanib, dangasalik/faollik binar juftligining qo‘shimcha ifodasi sifatida namoyon bo‘ladi. “Chaqqonlik” mehnatsevarlik bilan semantik yaqin (harakatchanlik, tirishqoqlik) bo‘lib, qahramonning yangi, ijobiy qiyofaga o‘tishini kuchaytiradi. Lingvomadaniy jihatdan esa mehnatsevarlik tushunchasi o‘zbek xalq mentalitetiga xos bo‘lgan oilaviy-axloqiy qadriyat sifatida namoyon bo‘ladi. “Mehnatsevar xotin” obrazi o‘zbek ertaklarida keng tarqalgan ideal ayol-xotin arxetipi bo‘lib, u nafaqat shaxsiy fazilat, balki oila farovonligi va urning ijtimoiy mavqei saqlab qolish vositasi sifatida talqin etiladi. Bahodirning xotiniga “achinishi” orqali matn mehnatsevarlikni oilaviy sadoqat va halollik bilan bog‘laydi.

“To‘qqiz dangasa shahar bozorining o‘rtasida, bir abjir bo‘lsa shaharning bir chetida yashar ekan. Shahar o‘rtasida yashovchi dangasalar kamhafsasalikdan bir kunda bir aravani zo‘rg‘a yasalar ekanlar.” (To‘qqiz dangasa)

Mazkur parchada “to‘qqiz dangasa” va “bir abjir” matnda son orqali kuchaytirilgan qarama-qarshilik yaratilgan: ko‘p sonli dangasalar bir kishilik abjirga qarshi qo‘yiladi. Bu miqdoriy kontrast dangasalikning jamoaviy nuqson, abjirlikning esa yakka fazilat ekanligini ta‘kidlaydi hamda sifat miqdordan ustun turadi degan xalq falsafasini ifodalaydi. Ertakdagi *dangasa* leksemasi mehnatga nisbatan salbiy munosabatni bildiruvchi baholovchi otdir. *Abjir* esa “chaqqon, epchil, ishbilarmon” ma‘nosidagi ijobiy baholovchi leksema, dangasaning to‘g‘ridan-to‘g‘ri antonimi sifatida qo‘llangan. Lingvomadaniy jihatdan ushbu parcha o‘zbek xalq mentalitetidagi “ko‘plik sifat kafolati emas” degan xalq falsafasini aks ettiradi. Dangasalik bu yerda shaxsiy emas, balki jamoaviy illat sifatida ko‘rsatiladi. Bunda butun bir guruh birgalikda ham natija bera olmaydi, bu esa jamoada intizom va ma‘suliyat taqsimotining yo‘qligini masxaralaydi. Shuningdek, makon qarama-qarshiligi ham diqqatga sazovor: dangasalar shahar o‘rtasida, abjir esa shahar chetida yashaydi. Bu dangasalikni qulaylik va farovonlik bilan, mehnatsevarlikni esa qiyinchilik sharoitida ham natija berish bilan bog‘lovchi ramziy makon-kod bo‘lib, xalq og‘zaki ijodida keng tarqalgan.

“Jack was so lazy that he would do nothing but bask in the sun in the hot weather, and sit by the corner of the hearth in the winter-time.” (Lazy Jack — Yalqov Jek)

Ingliz ertagidan olingan mazkur misolda *“lazy”* asosiy baholovchi sifat, dangasalikni bevosita nomlovchi leksema hisoblanadi. *“So... that”* esa natija ergash gapli qurilma, dangasalik darajasining haddan tashqari yuqori ekanligini ta‘kidlaydi. *“Bask in the sun”* va *“sit by the corner of the hearth”* — ikkita fasl bo‘yicha parallel qurilgan konkret harakatlar bo‘lib, ikkisi ham passivlik va qulaylikka intilishni bildiradi, ya‘ni issiqda quyoshda yotish, sovuqda o‘choq yonida o‘tirish. Lingvomadaniy tahlil natijasi shuni ko‘rsatadiki, bu parchada dangasalik fasllar aylanishi bo‘ylab barqaror xususiyat sifatida taqdim etiladi. Jek yoz-u qish, ya‘ni yilning istalgan mavsumida ham faqat qulaylikni tanlaydi. Bu ingliz ertaklariga xos individual-komik talqin hisoblanadi. Dangasalik jamoaviy emas, balki bitta qahramonning shaxsiy xarakter xususiyati sifatida masxara ostiga olinadi. O‘zbek variantidagi “to‘qqiz dangasa” bilan solishtirganda farq yaqqol ko‘rinadi. Ya‘ni o‘zbek ertagida dangasalik jamoaviy illat, ingliz ertagida esa individual xarakter nuqsoni sifatida talqin qilinadi.

“But the lad was brave and industrious, and a kindly farmer gave her cow pasturage, so they lived in reasonable comfort and contentment.” (The Warden of the Marches — Chegaralar qo‘riqchisi)

Yuqoridagi parchada “brave” va “industrious” leksemalari ijobiy baholovchi sifat juft holda qo‘llangan. Industrious (mehnatsevar, tirishqoq) leksik birligi mehnatsevarlik oppozitsiyasining bevosita leksik ifodachisi sanaladi. “Kindly farmer” yordamchi qahramon obrazi bo‘lib, uning “kindly” (mehribon) sifati orqali bosh qahramonning mehnatsevarligi tashqi muhit tomonidan mukofotlanishiga zamin yaratiladi. Madaniy jihatdan qaraganda, mazkur parchada mehnatsevarlikning jasorat bilan bir qatorda

qo‘llanilishi muhim ahamiyat kasb etadi. Aytish joizki, ingliz ertaklarida mehnatsevarlik ko‘pincha shaxsiy jasorat va tashabbuskorlik bilan uyg‘unlashadi. Bu individualistik qadriyatlar tizimiga xos xususiyatlardan biridir. Qolaversa, o‘zbekcha matnlarda mehnat natijasi ko‘pincha diniy-ma‘naviy “baraka” bilan bog‘lansa, ingliz matnida u moddiy qulaylik va ruhiy qanoat sifatida taqdim etiladi. Yuqorida tahlil qilingan misollar ingliz va o‘zbek xalq ertaklarida “mehnatsevarlik/dangasalik” oppozitsiyasining o‘xshash hamda farqli jihatlarini yaqqol namoyon etdi. Har ikki lingvomadaniyatda ham mehnatsevarlik ijobiy, dangasalik esa salbiy aksiologik belgi bilan xarakterlanadi, biroq bu qadriyatning ifodalanish xususiyatlari milliy mentalitetga ko‘ra farqlanadi.

XULOSA. Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, ingliz va o‘zbek xalq ertaklaridagi “mehnatsevarlik/dangasalik” aksiologik binar oppozitsiyasi semantik hamda lingvomadaniy jihatdan chuqur o‘ziga xosliklarga ega ekanligini ko‘rsatdi. Nazariy tahlil shuni ko‘rsatadiki, binar oppozitsiyalar til va madaniyatning universal tashkil etuvchi tamoyili bo‘lib, ular orqali qadriyatlar o‘z zid tomoni bilan taqqoslangandagina to‘liq ma‘no kasb etadi. Amaliy tahlil natijalari ikki lingvomadaniyatda ham mehnatsevarlik ijobiy, dangasalik esa salbiy qadriyat sifatida baholanishini, biroq bu oppozitsiyaning tilda ifodalanish xususiyatlari milliy mentalitetga ko‘ra farqlanishini isbotladi. Shuningdek, mazkur qarama-qarshilik umuminsoniy axloqiy qadriyat bo‘lsa-da, uning til va obrazlar orqali ifodalanish shakli har bir xalqning tarixiy-madaniy tajribasi, dunyoqarashi va ijtimoiy qadriyatlar tizimini o‘zida aks ettiradi. Tadqiqot natijalari kelgusida ushbu hodisani boshqa til birliklari (frazologizmlar, maqollar) materialida kengroq va chuqurroq o‘rganish uchun asos bo‘lib xizmat qilishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Briggs, K. (2002). *British folk-tales and legends*. Routledge.
2. Greimas, A.J. (1966). *Sémantique structurale: Recherche de méthode*. Larousse.
3. Jacobs, J. (2005). *English fairy tales*. Pennsylvania State University Press.
4. Jakobson, R., Fant, C.G. M., & Halle, M. (1952). *Preliminaries to speech analysis: The distinctive features and their correlates* (Technical Report No. 13). Massachusetts Institute of Technology.
5. Jurayev, M. (2004). *O‘zbek xalq mifologiyasi*. Fan.
6. Lévi-Strauss, C. (1983). *Structural anthropology*. Nauka.
7. Mahmudov, N. (2012). *Tilning mukammal tadqiqi yo‘llarini izlab... Mumtoz so‘z*.
8. Mirzayev, M., Sodiqov, A., & Tojiyev, J. (1980). *O‘zbek tili antonimlarining lug‘ati*. O‘qituvchi.
9. Nurmonov, A. (2002). *O‘zbek tilshunosligi tarixi*. O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi.
10. Rahmatullayev, S. (1981). *O‘zbek tili leksikologiyasi*. Universitet.
11. Saussure, F.de. (1916). *Cours de linguistique générale*. Payot.
12. Sarimsoqov, B. (1981). *O‘zbek folklorining janrlar tarkibi*. Fan.
13. Trubetzkoy, N. S. (1939). *Grundzüge der Phonologie*. Travaux du Cercle Linguistique de Prague.
14. Uch og‘ayni botirlar. (2017). *O‘zbek xalq ertaklari*. Yangi asr avlodi.